



ADVOKATURA INSTITUTI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA HUQUQIY TABIATI.

**Isroilov Ikromjon
Odilovich**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Magistranti
ikromjonodilovich1982@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada advokatura institutining tushunchasi, mohiyati va huquqiy tabiati tahlil qilinadi, shuningdek, hozirgi tahrirdagi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun va shu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qo‘llaniladi. Advokatura — bu huquqiy yordam ko‘rsatish, sudda himoya qilish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan mustaqil va professional faoliyat yurituvchi advokatlar tizimidir. Maqola, advokaturaning jamiyatdagi roli va uning huquqiy tabiatini o‘rganib, bu institutning davlat tizimidagi o‘rni va ahamiyatini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Advokatura, huquqiy yordam, sud, himoya, huquqiy tabiati, mustaqillik, yuridik yordam, huquqiy himoya, axloqiy me‘yorlar, huquqiy tizim.

Advokatura - O‘zbekiston Respublikasidagi fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri, huquqiy davlat tizimining elementi bo‘lib, usiz jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash ilocsizdir¹.

Advokatlik faoliyati har qanday demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi advokatura institutining mustahkam huquqiy asoslarini belgilab, uning qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplari asosida faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. Har qanday kasb yoki lavozim egalari kabi, advokatlar ham o‘z faoliyatini normativ-huquqiy hujjatlar doirasida amalga oshiradilar. Masalan, o‘qituvchilar “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun asosida faoliyat yuritsalar, sudyalalar o‘z ishlarini “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun va boshqa huquqiy normalar asosida olib boradilar. Mazkur huquqiy hujjatlar nafaqat ularning faoliyatini tartibga soladi, balki kasbiy vazifalarini to‘siqsiz amalga oshirish uchun zarur kafolatlarni ham belgilaydi. Kafolat – bu ma‘lum bir sohada huquq va majburiyatlarning to‘liq va to‘sqinliksiz bajarilishini ta‘minlaydigan mexanizmdir. N.D. Eriashvili va V.Y. Kositsinlarning fikricha, advokatlar o‘zlariga ishonch bildirilgan shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi kasb egalari.

¹ “Zamonaviy ilm-fan va ta‘lim istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. J.Sh.Mahsumovna Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi mahsus fan o‘qituvchisi, 3-darajali yurist, magistr.

“Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida advokatlik faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, adolatli sudlovga erishishni ta‘minlash uchun ko‘rsatiladigan malakali yuridik yordam sifatida e‘tirof etilgan.

Advokatura instituti, odatda, mustaqil, professional va huquqiy yordam ko‘rsatish uchun tashkil etilgan tizim sifatida tavsiflanadi. Advokatlar o‘z mijozlariga huquqiy maslahatlar beradi, ularni sudda himoya qiladi va barcha yuridik masalalar bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasiga ko‘ra, advokatura - huquqiy institut bo‘lib, u advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. Advokatura O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi.. Ushbu institutning faoliyatini amalga oshirishda advokatlar faqat qonunlar va axloqiy me‘yorlarga tayanadilar. Advokatura tizimi ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tomonidan nazorat qilinadi².

Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatadiki, advokatura instituti huquqiy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, fuqarolarni yuridik yordam bilan ta‘minlashda va adolatli hukm chiqarilishini ta‘minlashda katta rol o‘ynaydi. “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida advokatning asosiy vazifalari va huquqlari aniq belgilangan bo‘lib, uning vazifasi o‘z professional faoliyatida amaldagi qonunchilik talablariga, Advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etishi, o‘ziga yuridik yordam so‘rab murojaat etgan jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari hamda usullaridan foydalanishi shart ekanligi, advokat muayyan ish bo‘yicha yuridik yordam ko‘rsatayotgan yoki ilgari yuridik yordam ko‘rsatgan shaxslarning manfaatlari ishni olib borishni so‘rab murojaat etgan shaxsning manfaatlariga zid kelgan yoki u sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruv o‘tkazuvchi shaxs, jamoat ayblovcisi, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, jabrlanuvchining, fuqaroviy da‘vogarning, fuqaroviy javobgarining vakili, guvoh, xolis, tarjimon sifatida ishtirok etgan hollarda, shuningdek agar ishni surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida tergov qilishda yoxud sudda advokatning qarindoshi bo‘lgan mansabdor shaxs ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan bo‘lsa, xuddi shuningdek agar advokat bevosita yoki bilvosita shu ishdan shaxsan manfaatdor bo‘lsa bu hol unga ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) manfaatlariga zid kelsa, yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emasligi belgilab qo‘yilgan.

Advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan huquqiy yordam faqat shaxsiy huquqlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki umumbashariy huquqiy me‘yorlar va prinsiplar asosida jamiyatda adolatni ta‘minlashga qaratilgan.³

² O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.1996 yildagi 349-I-son <https://lex.uz/ru/docs/-54503>

³ O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.1996 yildagi 349-I-son <https://lex.uz/ru/docs/-54503>

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Yuridik yordam to'g'risida"gi Qonunga binoan, advokatura institutining jamiyatda ahamiyati yanada kengaymoqda. Bu qonun huquqiy yordamni eng yuqori darajada ta'minlash, advokatlar va huquqshunoslarning professional xizmatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.⁴

Advokatura institutining jamiyatdagi roli har qachongidan muhim bo'lib, u faqat yuridik yordam ko'rsatish bilan cheklanmaydi. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi bo'yicha advokatlik faoliyatining kafolatlari: Advokatning kasbga oid huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati qonun bilan qo'riqlanadi. Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita yoki bilvosita aralashish, ular o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanadi. Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biror-bir shaklda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Advokat himoyachilik yoki vakillik vazifasini bajarayotganda o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tafsilotlar yuzasidan guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas. Advokat kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan qo'lga kiritgan advokatlik dalillari (ashyolari), hujjatlari undan olib qo'yilishi yoki ko'zdan kechirilishi mumkin emas, shuningdek uning o'zi yuridik yordam ko'rsatayotgan shaxslar bilan uchrashish huquqi cheklanishi mumkin emas. Advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtai nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas. Advokat qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatayotganligi munosabati bilan uni jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikni qo'llash bilan qo'rqitish mumkin emas. Advokatga nisbatan jinoiy ish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi mumkin⁵.

Xulosa qilib aytganda, advokatura instituti huquqiy jamiyatda zaruriy va ajralmas tashkilotdir. Uning asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, yuridik yordam ko'rsatish va sudlarda vakillik qilishni o'z ichiga oladi. "Advokatura to'g'risida"gi Qonun va boshqa tegishli huquqiy normativ-huquqiy hujjatlar orqali advokatura institutining samarali faoliyat yuritishi ta'minlanadi. Advokatlarning mustaqil va etik asosda faoliyat yuritishi, ularning huquqiy tizimda o'rni va jamiyatda adolatni ta'minlashdagi roli kengaymoqda. Shuningdek, advokatura institutining samarali ishlashi jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishga, fuqarolarning huquqiy himoyasini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Инагамова М.М. Сифатли таълим тизимини ривожлантиришнинг баъзи стратегик асослари //Республикаси ИИБ Малака ошириш институти ахборотномаси. Т.– 2023. № 3. 63-70 б.

⁴ O'zbekiston Respublikasi "Yuridik yordam to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori , 02.08.2022 yildagi 2380-IV-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-6203060>

⁵ O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.1996 yildagi 349-I-son <https://lex.uz/ru/docs/-54503>

2. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ikkinchi bo'lim. inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar 29-modda // <https://lex.uz/docs/-6445145>

3. 5-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son

5. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli [Qonuniga](#) asosan oltinchi qism bilan to'ldirilgan - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 10-modda

6. "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 6-modda <https://lex.uz/ru/docs/-54503#-55655>